

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA QURILISH UNIVERSITETI**

YULDOSHOVA ZARNIGOR SAYFULLO QIZI

**STERJENNING HAKATLANUVCHI DINAMIK SO‘NDIRGICH BILAN
BIRGALIKDAGI TEBRANISHLARI DINAMIKASINI BAHOLASH**

01.02.01 – Nazariy mexanika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
(PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro –2026

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Yuldoshova Zarnigor Sayfullo Qizi

Sterjenning harakatlanuvchi dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi tebranishlari
dinamikasini baholash.....5

Юлдошова Зарнигор Сайфулло Кизи

Оценка динамики колебаний стержня с подвижным динамическим
гасителем.....21

Yuldoshova Zarnigor Sayfullo Qizi

Evaluation of the dynamics of beam vibrations combined with a moving dynamic
absorber41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....44

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA QURILISH UNIVERSITETI**

YULDOSHOVA ZARNIGOR SAYFULLO QIZI

**STERJENNING HARAKATLANUVCHI DINAMIK SO‘NDIRGICH BILAN
BIRGALIKDAGI TEBRANISHLARI DINAMIKASINI BAHOLASH**

01.02.01 – Nazariy mexanika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI
(PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro –2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3. PhD/FM1355 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) universitet veb-sahifasida (www.bmti.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xodjabekov Muradjon Usarovich
fizika-matematika fanlari doktori (DSc)

Rasmiy opponentlar:

Indiaminov Ravshan Shukurovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xaydarov Ilxom Qudratovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Etakchi tashkilot:


Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil «27» fevral kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200100, Buxoro sh., Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel (99865) 223-78-84; faks: (99865) 223-79-72; e-mail: bmti_info@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№489 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200100, Buxoro sh., Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel. (99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «7» fevral kuni tarqatildi.

(2025 yil «2» dekabrda №20 raqamli reestr bayonnomasi).



M.X.Teshaev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d. (DSc), prof.

R.A.Sabirova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.b.f.d. (PhD)

Z.I.Boltayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d. (DSc), prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mexanika, avtomatika, aerokosmik va boshqa sohalarda keng qo'llanilayotgan eng ilg'or qurilmalarda tashqi ta'sirlar natijasida yuzaga kelayotgan zararli tebranishlarni so'ndirish, ularning ishlash samaradorligini oshirish va uzoq muddat ishonchli ishlashini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Shu jihatdan, ilg'or qurilmalar tebranishlari bilan bog'liq bo'lgan mavjud muammolarni ilmiy asoslab, matematik modellarini ishlab chiqish, dinamikasini baholash, optimal parametrlarini tanlash va zarur tavsiyalar berish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda, jumladan Yaponiya, Xitoy, AQSH, Rossiya va Germaniya kabi davlatlarda loyihalananayotgan va ishlab chiqarilayotgan barcha turdagi ilg'or qurilmalarning zararli tebranishlarini so'ndirish va boshqarish, samarali hamda uzoq muddat ishonchli ishlashini ta'minlash muhim bo'lgan vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahonda ilg'or loyihalash va etakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida qurilmalarning zararli tebranishlarni so'ndirish hamda tebranishlarni boshqarish muammolarini yechishda murakkab bo'lgan mexanik sistemalarni matematik modellarini ishlab chiqish, dinamikasini baholash, optimal parametrlarni aniqlash masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, ushbu masalalar tebranish jarayonlarini samarali boshqarish va zararli tebranishlarni so'ndirish orqali qurilmalarning ishonchliligi, ustuvorligi hamda ishlash samaradorligini oshirishni ta'minlab, zamonaviy texnika va texnologiyalarni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmoqda. Bu borada, jumladan taqsimlangan parametrli va to'plangan massali sistemalarning birgalikdagi murakkab harakatini matematik modellashtirish hamda dinamikasini baholash, ya'ni optimal parametrlarini uzatish funksiyasi yordamida konstruktiv parametrlarga bog'liq holda aniqlash, matematik modellashtirish va dinamikasini baholash usullarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda sanoat va texnikaning ko'plab sohalari – avtomobilsozlikda, temiryo'l transportida, sanoat mashinalari va uskunalari takomillashtirishda keng qo'llanilayotgan ilg'or qurilmalarni matematik modellarini ishlab chiqish hamda dinamikasini baholashga qaratilgan ko'plab loyihalar ustida ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish..., qurilish materiallari ishlab chiqarish klasterlarini tashkil etish...”¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifani amalga oshirish, jumladan mexanik sistemalarning dissipativlik xossalarini hisobga olgan holda tashqi ta'sirlar natijasida yuzaga keladigan zararli tebranishlarni so'ndirish va tebranishlarni boshqarish, ya'ni matematik modellashtirish va dinamikasini baholash masalalari dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi” PF-60-son Farmoni.

to'g'risidagi" Farmoni, 2008 yil 15 iyuldagi PQ-916-son "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston va xorij olimlari tomonidan zararli tebranishlarni so'ndirish, turli tipdagi dinamik so'ndirgichlarni qo'llash va optimal parametrlarini aniqlash, tebranishlarni boshqarish masalalariga oid ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari Sh.P.Alimuxamedov, F.B.Badalov, E.S.Briskin, D.Gortog, O.M.Dusmatov, S.V.Eliseev, B.G.Korenev, V.G.Klimov, K.A.Karimov, V.B.Larin, M.M.Mirsaidov, M.A.Pavlovskiy, Yu.V.Radish, T.R.Rashidov, L.M.Reznikov, L.M.Rijkov, I.I.Safarov, M.X.Teshaev, F.A.Furman, K.V.Frolov va boshqalar tomonidan olib borilib, takomillashtirilgan hamda amaliyotga tatbiq etilgan.

Gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali taqsimlangan parametrlil mexanik sistemalarning zararli tebranishlarini sistemaning bir nuqtasiga o'rnatilgan harakatlanmaydigan dinamik so'ndirgichlar yordamida so'ndirish masalalari M.A.Pavlovskiy, O.M.Dusmatov, L.M.Rijkov, V.B.Yakovenko, X.M.Bo'ronov, M.U.Xodjabekovlarning ishlarida o'rganilgan. Bugungi kunda gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarini matematik modellashtirish va dinamikasini baholash yechilishni talab etadigan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'likligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining OT-F4-71 "Fazoviy va qobiq konstruksiyalarning zilzilabardoshlik nazariyasini rivojlantirishda chiziqsizliklarni e'tiborga olish muammolarini yechish" (2017-2020) mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarini matematik modellashtirish va dinamikasini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarini matematik modelini ishlab chiqish;

gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarida uzatuvchi funksiyasini analitik ko'rinishda aniqlash va sistema parametrlarining turli qiymatlarida sonli hisoblashlar asosida tahlil qilish;

sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarida dinamik so'ndirgichning optimal parametrlarini aniqlash;

dinamik so'ndirgichning effektivligini ta'minlashda sistema parametrlarini zaruriy tanlash bo'yicha sonli tahlillar asosida tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen va harakatlanuvchi dinamik so'ndirgichlar olingan.

Tadqiqotning predmetini tebranishlardan himoyalalanuvchi sterjenning ko'ndalang tebranishlarini matematik modellashtirish va uzatuvchi funksiyasini analitik ko'rinishda sistema parametrlariga bog'liq holda aniqlash, tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy va analitik mexanika, tebranishlar va optimallashtirish nazariyasi, differensial tenglamalar hamda funksional analiz usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarining matematik modeli ishlab chiqilgan;

sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarida uzatuvchi funksiyasini analitik ko'rinishda sistema parametrlariga bog'liq holda aniqlangan;

sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarida dinamik so'ndirgichning optimal parametrlarini aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan;

dinamik so'ndirgichning harakati davomida sterjenning turli nuqталarda bo'lganda uning zararli tebranishlarni so'ndirishdagi effektivligi sistema parametrlarining turli qiymatlari uchun aniqlangan;

sistema konstruktiv parametrlari va o'zgaruvchilarining turli qiymatlarida tebranishlardan himoyalalanuvchi sterjen dinamikasini baholashning sonli tahlil etish algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarining matematik modellashtirilgan;

sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarida uzatuvchi funksiyasini analitik ko'rinishda aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan;

sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlari dinamikasi baholangan;

dinamik so'ndirgichning harakati davomida sterjenning turli nuqtalarda bo'lganda uning zararli tebranishlarni so'ndirishdagi effektivligi bo'yicha konstruktiv parametrlarni tanlash tavsiyalari keltirilgan;

masalalarning olingan yechimlari mavzuga oid xususiy hollar uchun ma'lum bo'lgan yechimlar bilan taqqoslangan, optimal parametrlarni tanlash bo'yicha xulosalar olingan hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Asoslangan matematik va sonli usullardan foydalanish natijasida ishlab chiqilgan modellarning adekvatligi xususiy holatlarda adabiyotlarda keltirilgan boshqa mualliflar natijalari bilan qiyosiy tahlil qilish orqali tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mazkur yo'nalishdagi bilimlarni boyitish bilan birga gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikaga ega bo'lgan tebranishlardan himoyalalanuvchi sistemalarning ko'ndalang tebranishlaridagi dinamikasini baholash metodikasi ishlab chiqilganligi hamda sohaga oid ilmiy adabiyotlar tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati zamonaviy sanoat va texnika sohalarida keng qo'llanilayotgan mexanizmlar, mashina va ehtiyot qismlarning uzoq muddat ishonchli ishlashini ta'minlash imkoniyatini berishi bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sterjenning harakatlanuvchi dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi tebranishlari dinamikasini baholash bo'yicha olingan natijalar asosida:

harakatlanuvchi dinamik so'ndirgich va sterjenning birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarida dinamik so'ndirgichining optimal parametrlarini aniqlash usuli hamda konstruktiv parametrlarining turli qiymatlarida dinamikasini baholashning sonli tahlil etish algoritmidan Samarqand viloyati transport boshqarmasi "Tramvay liniyalarini ekspluatatsiya qilish direksiyasi" davlat korxonasi transport vositalari qismlari harakatlarini matematik modellashtirishda va dinamikasini baholashda joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 02.06.2025 yildagi № 04/6098 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, transport vositalari qismlarining tashqi ta'sirlardagi tebranishlarini matematik modelini ishlab chiqishga va dinamikasini baholashga hamda zararli tebranishlar amplitudasini materiallar turiga qarab 42-55 % gacha kamaytirishga, materiallarning yaroqlilik muddatini oshirish uchun tekis taqsimlangan parametrlil transport vositalari qismlarning qo'shimcha mustaxkamlanishini yoki kuchaytirilishini aniq baholashga erishilgan.

tebranishlarning matematik modelidan va sistema konstruktiv parametrlari, o'zgaruvchilarining turli qiymatlarida tebranishlardan himoyalalanuvchi sterjen dinamikasini baholashning sonli tahlil etish algoritmidan davlat dasturlari doirasida 2021-2023 yillarda Andijon davlat texnika institutida bajarilgan UZB-IND 2021-85 "Nano-termoplast (polipropilen), reaktoplast (epoksid smolasi asosida), nano o'lchamdagi to'ldiruvchilar bilan boyitilgan polimer kompozit materiallar va

qoplamalarini mexanik hamda tribologik xossalarini takomillashtirish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasini bajarishda qoʻllanilgan (Andijon davlat texnika institutining 29.11.2025 yildagi № 01-03-3752 sonli maʼlumotnomasi). Natijada, polimer materialli konstruksiya elementlarining harakatlarida matematik modelini ishlab chiqish va dinamikasini sonli tahlil etish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiyaga tegishli boʻlgan 13 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqolalar, jumladan 6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilib, 5 ta ilmiy ishlar sohaga oid ilmiy jurnallarda, ilmiy va ilmiy texnik konferensiyalarning materiallarida chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, toʻrtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat boʻlib, 101 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, mavzu boʻyicha ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning oʻrganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obʼekti, predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi bayon qilingan. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, natijalarining eʼlon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoning oʻrganilganlik darajasi boʻyicha adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida harakatlanuvchi dinamik soʻndirgichlar va sterjenlarni oʻrganilganlik darajasi boʻyicha adabiyotlarning tahliliy sharhi keltirilgan. Sterjen va harakatlanuvchi dinamik soʻndirgich materialining gisterezis tipidagi elastik dissipativ xossalarini hisobga olgan holda koʻndalang tebranishlarini matematik modellashtirish hamda harakatlanuvchi dinamik soʻndirgich materialining gisterezis tipidagi elastik dissipativ xossalarini hisobga olgan holda tebranishlarni soʻndirishdagi optimal parametrlarini aniqlash masalalarini yechish dolzarb masala ekanligi asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi chiziqli elastik xarakteristikali dinamik soʻndirgich bilan birgalikdagi tebranishlarining dinamikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi chiziqli elastik xarakteristikali dinamik soʻndirgich bilan birgalikdagi tebranishlarining dinamikasi oʻrganilgan. Bunda sterjen materialining gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikalari Pisarenko-Boginich gipotezasiga asoslangan.



1-rasm. Gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen va harakatlanuvchi dinamik so'ndirgichli sistema sxemasi

1-rasmda sxemasi keltirilgan mexanik sistema uchun erkin jism diagrammasidan foydalansak, gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali stejenning va uning uzunligi bo'ylab harakatlanuvchi chiziqli elastik xarakteristikali qattiq jisimli dinamik so'ndirgichning birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarida quyidagi munosabatlar o'rinli bo'ladi:

$$\frac{\partial^2 M}{\partial x^2} - c\zeta\delta(x - vt)H\left(\frac{l}{v} - t\right) = -\rho A \frac{\partial^2 w_a}{\partial t^2}; \quad (1)$$

$$m \frac{\partial^2 w(x_0)}{\partial t^2} + m \frac{\partial^2 \zeta}{\partial t^2} + c\zeta = -m \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}.$$

bunda M – eguvchi moment; ρ, A – lar mos ravishda sterjen materialining zichligi va ko'ndalan kesimi yuzi; $w(x_0)$ – dinamik so'ndirgich joylashgan sterjen nuqtasining ko'chishi; $x_0 = vt$ - dinamik so'ndirgich joylashgan nuqta; t – vaqt; v - dinamik so'ndirgich tezligi, l - sterjen uzunligi, ζ - dinamik so'ndirgichning ko'chishi; $\delta(x)$ – Dirakning delta funksiyasi; $H\left(\frac{l}{v}\right)$ – Hevisayd funksiyasi; c, m – lar mos ravishda dinamik so'ndirgichning bikrligi va massasi; w_a – sterjenning absolyut ko'chishi

$$w_a = w_0 + w, \quad (2)$$

w_0 - asosning ko'chishi; w – sterjen egilishi.

Sterjen materialidagi kuchlanish va nisbiy deformatsiya orasidagi quyidagi munosabatdan foydalanamiz:

$$\sigma = E(1 + (-\eta_1 + j\eta_2)[C_0 + f(\zeta_0)])\zeta_0, \quad (3)$$

bunda E – elastiklik moduli; $\eta_1, \eta_2 = \eta_{22} \text{sign}(\omega)$ lar sterjen materialining elastik dissipativlik xossalariga bog'liq bo'lgan doimiy koeffitsientlar bo'lib, gisterezis sirtmog'idan aniqlanadi; $j^2 = -1$; $f(\zeta_0)$ – tebranishlar dekrementi bo'lib, ζ_0 - nisbiy deformatsiya absolyut qiymatining funksiyasi hisoblanadi,

$$f(\zeta_0) = C_1\zeta_0 + C_2\zeta_0^2 \dots + C_n\zeta_0^n, \quad (4)$$

C_0, C_1, \dots, C_n - gisterezis tugunining tajribadan aniqlanadigan parametrlari bo'lib, sterjen materialining dempferlovchi xossalariga bog'liq.

Eguvchi moment ifodasini hisoblaymiz.

$$M = EI \frac{\partial^2 w}{\partial x^2} \left[1 + C_0(-\eta_1 + j\eta_2) + \frac{24}{h^3} (-\eta_1 + j\eta_2) \int_0^{h/2} f(\zeta_0) z^2 dz \right], \quad (5)$$

bunda $I = \frac{bh^3}{12}$; $b = const$ va $h = const$ - sterjen eni va balandligi.

(2) va (3) ifodalarni (1) differensial tenglamalar sistemasiga qo'yamiz va uning yechimini yechimini quyidagicha izlaymiz:

$$w(x, t) = \sum_{i=1}^{\infty} u_i(x) q_i(t), \quad (6)$$

bunda $q_i(t)$ – vaqtning funksiyasi; $u_i(x)$ funksiyalar ortogonal hisoblanadi.

Hosil bo'lgan differensial tenglamaning ikki tomonini $u_m(x)$ ga ko'paytiramiz hamda $[0; l]$ intervalda integrallaymiz. Natijada ortogonallik shartidan va Dirakning delta hamda Hevisayd funksiyalari xossaligidan foydalanib, ba'zi hisoblashlarni bajargandan so'ng quyidagi differensial tenglamaga ega bo'lamiz:

$$\ddot{q}_i + \{(1 + C_0(-\eta_1 + j\eta_2))p_i^2 + \frac{3EI}{\rho Ad_{2i}}(-\eta_1 + j\eta_2) \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \times \\ \times \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx\} q_i - \mu \mu_0 n_0^2 u_{i0} \zeta H\left(\frac{1}{v} - t\right) = -d_i \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}; \quad (7)$$

$$u_{i0} \ddot{q}_i + \ddot{\zeta} + n_0^2 \zeta = -\frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2},$$

bunda $\mu = \frac{m}{\rho Al}$; $\mu_0 = \frac{l}{d_{2i}}$; $d_i = \frac{d_{1i}}{d_{2i}}$; $d_{1i} = \int_0^l u_i dx$; $d_{2i} = \int_0^l u_i^2 dx$; $q_{ia} = |q_i|$;
 $u_{i0} = u_i(x_0)$; $n_0^2 = \frac{c}{m}$; p_i - sterjenning xususiy chastotasi.

(7) tenglamalar sistemasi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali, sterjen va harakatlanuvchi chiziqli elastik xarakteristikali dinamik so'ndigichning birgalikdagi ko'ndalang tebranishlari harakat differensial tenglamalar sistemasi hisoblanadi.

Tebranishlardan himoyaluvchi sterjenning dinamikasini tahlil qilish maqsadida $S = \frac{d}{dt}$ differensial operator yordamida algebraik ko'rinishdagi tenglamalar sistemasiga keltiramiz. $S^2 = -\omega^2$ ekanligini hamda $H\left(\frac{1}{v} - t\right)$ Hevisayd funksiyasining $\frac{1}{v} - t > 0$ bo'lganda $H\left(\frac{1}{v} - t\right) = 1$ xossasini hisobga olib, q_i va ζ o'zgaruvchilarga nisbatan yechamiz.

$$q_i(t) = -\frac{A_{10} + jA_{20}}{B_{10} + jB_{20}} W_0; \quad (8)$$

$$\zeta(t) = -\frac{A_{30} + jA_{40}}{B_{10} + jB_{20}} W_0,$$

bunda $A_{10} = -\omega^2 + (1 + d_i \mu \mu_0 u_{i0}) n_0^2$; $A_{20} = 0$; $A_{30} = (-\omega^2 + (1 - \eta_1 C_0) p_i^2 -$
 $-\eta_1 \frac{3EI}{\rho Ad_{2i}} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx) d_i + u_{i0} \omega^2$;

$$\begin{aligned}
A_{40} &= d_i \eta_2 (C_0 p_i^2 + \frac{3EI}{\rho A d_{2i}} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k (k+3)} \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx); \\
B_{10} &= [-\omega^2 + (1 - \eta_1 C_0) p_i^2 - \eta_1 \frac{3EI}{\rho A d_{2i}} \times \\
&\times \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k (k+3)} \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx] [-\omega^2 + n_0^2] - \eta_2 [C_0 p_i^2 + \\
&+ \frac{3EI}{\rho A d_{2i}} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k (k+3)} \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx] n_0^2 - \mu \mu_0 n_0^2 u_{i0}^2 \omega^2; \\
B_{20} &= [-\omega^2 + (1 - \eta_1 C_0) p_i^2 - \eta_1 \frac{3EI}{\rho A d_{2i}} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k (k+3)} \times \\
&\times \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx] n_0^2 + \eta_2 [C_0 p_i^2 + \frac{3EI}{\rho A d_{2i}} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k (k+3)} \times \\
&\times \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx] [-\omega^2 + n_0^2]; W_0 = \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}.
\end{aligned}$$

Den Gartog usulidan foydalangan holda uzatish funksiyasining absolyut qiymati uchun olingan munosabatlardan invariant nuqtalarning amplituda-chastota tekisligi bo'yicha chastota o'qidagi koordinatalarini aniqlash mumkin.

$$\begin{aligned}
\omega_{a1,2,3,4} &= \pm \frac{p_i}{2} [-[(-A_0 + 2)\eta_2 + \eta_1]C_0 - 1 - (A_0 + 1) \times \\
&\times \frac{n_0^2}{p_i^2} + H_1(-\eta_2(A_0 + 2) + \eta_1)] \frac{n_0^2}{p_i^2} \pm \sqrt{D_a}]^{\frac{1}{2}} \left[\frac{n_0^2}{p_i^2} + \eta_2(C_0 + H_1) \right]^{\frac{1}{2}}; \\
&\hspace{15em} (9)
\end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
\omega_{b1,2,3,4} &= \pm \frac{p_i}{2} [-[(-A_0 + 1)\eta_2 + \eta_1]C_0 - 1 - (A_0 + 1) \times \\
&\times \frac{n_0^2}{p_i^2} + H_1(-\eta_2(A_0 + 2) + \eta_1)] \frac{n_0^2}{p_i^2} \pm \sqrt{D_b}]^{\frac{1}{2}} \left[\frac{n_0^2}{p_i^2} + \eta_2(C_0 + H_1) \right]^{\frac{1}{2}},
\end{aligned}$$

bunda D_a va D_b – sistema konstruktiv parametrlariga bog'liq bo'lgan parametrlar;

$$\begin{aligned}
A_0 &= d_i \mu \mu_0 u_{i0}; M_0 = \mu \mu_0 u_{i0}^2; \\
H_1 &= \frac{3EI}{\rho A d_{2i} p_i^2} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k (k+3)} \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx.
\end{aligned}$$

Aniqlangan (9) chastotalar va uzatish funksiyasining absolyut qiymati asosida qaralayotgan sistema uchun quyidagi munosabatlarni olish mumkin:

$$\begin{aligned}
\frac{(B_{10a,1} + u_i \omega_{a,1}^2 A_{10a,1})^2 + B_{20a,1}^2}{B_{10a,1}^2 + B_{20a,1}^2} - \frac{(B_{10a,2} + u_i \omega_{a,2}^2 A_{10a,2})^2 + B_{20a,2}^2}{B_{10a,2}^2 + B_{20a,2}^2} &= 0; \\
\frac{(B_{10b,1} + u_i \omega_{b,1}^2 A_{10b,1})^2 + B_{20b,1}^2}{B_{10b,1}^2 + B_{20b,1}^2} - \frac{(B_{10b,2} + u_i \omega_{b,2}^2 A_{10b,2})^2 + B_{20b,2}^2}{B_{10b,2}^2 + B_{20b,2}^2} &= 0, \\
&\hspace{15em} (10)
\end{aligned}$$

bunda

$$\begin{aligned} A_{10a,1} &= A_{10}(\omega_{a,1}^2); A_{10b,1} = A_{10}(\omega_{b,1}^2); A_{10a,2} = A_{10}(\omega_{a,2}^2); A_{10b,2} = A_{10}(\omega_{b,2}^2); \\ B_{10a,1} &= B_{10}(\omega_{a,1}^2); B_{10b,1} = B_{10}(\omega_{b,1}^2); B_{20a,1} = B_{20}(\omega_{a,1}^2); B_{20b,1} = B_{20}(\omega_{b,1}^2); \\ B_{10a,2} &= B_{10}(\omega_{a,2}^2); B_{10b,2} = B_{10}(\omega_{b,2}^2); B_{20a,2} = B_{20}(\omega_{a,2}^2); B_{20b,2} = B_{20}(\omega_{b,2}^2). \end{aligned}$$

Aniqlangan (10) tengliklar sistemaning ω chastotasiga bog'liq bo'lmagan ifodalar bo'lib, qolgan parametrlarning o'zaro bog'liqlik tenglamalari hisoblanadi va bu tengliklarni qanoatlantiruvchi parametrlarning qiymatlari qaralayotgan sistema uchun optimal qiymatlar bo'ladi.

Olingan natijalarning ishonchligini baholash maqsadida quyidagi holni ko'rib chiqaylik, sterjen materialining dissipativ xossalari chiziqli elastik xarakteristikali va $A_0 = \mu$, $n_0 = p_i$ bo'lsin. Bu holda Den Gartog tomonidan olingan natijalarni hosil qilish mumkin.

$$\frac{\omega^4}{p_i^4} - [\mu + 2] \frac{\omega^2}{p_i^2} + 1 = 0.$$

Sterjenning uchlari qistirib mahkamlangan va asos ko'chishi $w_0 = -\varepsilon p_0 \cos \omega t$ ko'rinishda bo'lsin (εp_0 – asos ko'chishining amplitudaviy qiymati; ε – kichik parametr). Chastota tenglamasini va xususiy tebranish formasini aniqlaymiz.


$$K_1(k_i x_0) K_2(k_i x_0) - K_3(k_i x_0) K_4(k_i x_0) = 0, \quad (11)$$

$$u_i(x) = K_3(k_i x) - \frac{\sinh(k_i x_0) + \sin(k_i x_0)}{\cosh(k_i x_0) - \cos(k_i x_0)} K_4(k_i x), \quad (12)$$


bunda $K_1(k_i x) = \frac{1}{2}(\cosh(k_i x) + \cos(k_i x))$; $K_2(k_i x) = \frac{1}{2}(\sinh(k_i x) + \sin(k_i x))$;

$$K_3(k_i x) = \frac{1}{2}(\cosh(k_i x) - \cos(k_i x)); K_4(k_i x) = \frac{1}{2}(\sinh(k_i x) - \sin(k_i x));$$


Sterjen materiali uchun 40X po'lat materialidan foydalanamiz. $E = 2.08 \cdot 10^{11} \text{ N/m}^2$, $\rho = 7810 \text{ kg/m}^3$. $v = 0.5 \text{ m/s}$ bo'lsin. U holda $t = 1 \text{ s}$ vaqtdagi nuqtaning holati $x_0 = 0.5 \text{ m}$ nuqtada bo'ladi. U vaqtda (11) chastota tenglamasining grafigi quyidagicha bo'ladi:



a)



b)



c)

2-rasm. (11) chastota tenglamasining grafigi.


2-a) rasmda (11) chastota tenglamasining grafigi berilgan. 2-b) va c) rasmlarda chastota tenglamasining nollarini aniqlash mumkin. Bu grafiklardan xususiy chastotalarni aniqlash imkonini beruvchi $k_1 = 4.74$ va $k_2 = 10.99$ qiymatlarini aniqlash mumkin.

Ushbu aniqlangan qiymatlar asosida xususiy tebranishning birinchi va ikkinchi formalari yoziladi.


$$u_1(x) = 0.5(\cosh(4.74x) - \cos(4.74x)) - 0.4907559184(\sinh(4.74x) - \sin(4.74x)). \quad (13)$$

$$u_2(x) = 0.5(\cosh(10.99x) - \cos(10.99x)) - 0.500325466(\sinh(10.99x) - \sin(10.99x)). \quad (14)$$

(13) va (14) xususiy tebranishning birinchi va ikkinchi formalarining grafiklari quyidagicha bo'ladi:



a)



b)

3-rasm. (13) va (14) xususiy tebranish formalarining grafigi.

3-rasmda (13) va (14) xususiy tebranish formalarining grafigi harakatlanuvchi dinamik so'ndirgich sterjen o'rtasida bo'lgan holda sterjen tebranishlari simmetrik bo'lganligi sababli sterjen uzunligining yarmi uchun ko'rsatilgan. Bu grafiklar 3-a) rasmda xususiy tebranishning birinchi va 3-b) rasmda ikkinchi formalarining o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning "**Chiziqli elastik xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi tebranishlarining dinamikasi**" deb nomlangan uchinchi bobida chiziqli elastik xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarining dinamikasi o'rganilgan. Uzatish funksiyasining analitik ifodasi aniqlanib, u asosida dinamik so'ndirgichning optimal parametrlari uchun zarur munosabatlar olingan.

Chiziqli elastik xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi tebranishlarining harakat differensial tenglamalar sistemasi quyidagicha bo'ladi:

$$\ddot{q}_i + p_i^2 q_i - \mu \mu_0 n_0^2 u_{i0} (1 + (-\theta_1 + j\theta_2)(D_0 + f(\zeta_{ot}))) \zeta H\left(\frac{1}{v} - t\right) = -d_i \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}; \quad (15)$$

$$u_{i0} \ddot{q}_i + \ddot{\zeta} + n_0^2 \left(1 + (-\theta_1 + j\theta_2)(D_0 + f(\zeta_{ot}))\right) \zeta = -\frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2},$$

bunda $\theta_1, \theta_2 = \theta_{22} \text{sign}(\omega)$ lar dinamik so'ndirgich materialining elastik dissipativlik xossalariga bog'liq bo'lgan doimiy koeffitsientlar bo'lib, gisterezis sirtmog'idan aniqlanadi; $f(\zeta_{ot})$ – tebranishlar dekrementi; D_0, D_1, \dots, D_n - gisterezis tugunining tajribadan aniqlanadigan parametrlari bo'lib, dinamik so'ndirgich materialining dempferlovchi xossalariga bog'liq.

Dinamik so'ndirgichning optimal parametrlarini aniqlashda Den Gartog usulidan foydalanamiz. Bu holda uzatish funksiyasining absolyut qiymati uchun quyidagi munosabatlarni hosil qilamiz:

$$\left[(1 + (M_0 - A_0 - 2)K_2) \frac{n_0^2}{p_i^2} \right] \frac{\omega^4}{p_i^4} + [-1 + (A_0 + 2)K_2 - (K_1 - 1)(A_0 + 1) \times \\ \times (2K_2 - 1) \frac{n_0^2}{p_i^2}] \frac{n_0^2 \omega^2}{p_i^2 p_i^2} + (A_0 + 1)(2K_2 - 1)(K_1 - 1) \frac{n_0^4}{p_i^4} = 0; \quad (16)$$

$$\left[(1 + (M_0 - A_0)K_2) \frac{n_0^2}{p_i^2} \right] \frac{\omega^4}{p_i^4} + [-1 - A_0 K_2 + (K_1 - 1)(A_0 + 1) \times \\ \times (2K_2 + 1) \frac{n_0^2}{p_i^2}] \frac{n_0^2 \omega^2}{p_i^2 p_i^2} - (-A_0 + 1)(K_1 - 1) \frac{n_0^4}{p_i^4} = 0,$$

bunda $K_1 = \theta_1(D_0 + f(\zeta_{ot}))$; $K_2 = \theta_2(D_0 + f(\zeta_{ot}))$.

Olingan (16) tenglamalardan invariant nuqtalarning amplituda-chastota tekisligi bo'yicha chastota o'qidagi koordinatalarini aniqlash mumkin.


$$\omega_{a1,2,3,4} = \pm \frac{p_i}{2} \left[-1 + (A_0 + 2)K_2 - (K_1 - 1)(A_0 + 1)(2K_2 - 1) \frac{n_0^2}{p_i^2} \right] \frac{n_0^2}{p_i^2} \pm \\ \pm \sqrt{D_a}^{\frac{1}{2}} \left[(1 + (M_0 - A_0 - 2)K_2) \frac{n_0^2}{p_i^2} \right]^{-\frac{1}{2}}; \quad (17)$$

$$\omega_{b1,2,3,4} = \pm \frac{p_i}{2} \left[-1 - A_0 K_2 + (K_1 - 1)(A_0 + 1)(2K_2 + 1) \frac{n_0^2}{p_i^2} \right] \frac{n_0^2}{p_i^2} \pm \\ \pm \sqrt{D_b}^{\frac{1}{2}} \left[(1 + (M_0 - A_0)K_2) \frac{n_0^2}{p_i^2} \right]^{-\frac{1}{2}}. \quad (18)$$


$\frac{n_0}{p_i}$ va $\frac{\omega}{p_i}$ nisbatlar orasigi munosabatni aniqlash maqsadida ushbu tenglamalarning grafiklarini chizishda sistema parametrlarini quyidagicha olamiz:

$$\mu = 0.1; \mu_0 = 4.006114863; d_i = 0.7319065894; \theta_{20} = \frac{1}{\pi};$$

$$A_0 = d_i \mu \mu_0 u_{i0} = -0.2055342254; M_0 = \mu \mu_0 u_{i0}^2 = 0.01968491707.$$



4-rasm. (16) tenglama bilan aniqlangan $\frac{\omega}{p_i}$ funksiyaning $\frac{n_0}{p_i}$ ga bog'liq holda o'zgarish grafiqi



5-rasm. (16) tenglama bilan aniqlangan funksiyaning $\frac{\omega}{p_i}$ ga bog'liq holda o'zgarish grafiqi ($\frac{n_0}{p_i} = 0.5; 0.7; 1.0$ (qizil; qora; yashil)).

4-rasmda (16) tenglamalar bilan aniqlangan $\frac{\omega}{p_i}$ funksiyaning $\frac{n_0}{p_i}$ ga bog'liq holda o'zgarish grafiqi keltirilgan. Bu grafiklardan shuni aytish mumkinki, $0 < \frac{n_0}{p_i} < 0.18$ bo'lganda $\frac{\omega}{p_i}$ nisbat birga teng qiymatlarni qabul qiladi. $\frac{n_0}{p_i}$ nisbatning shu oralig'i va parametrlarning yuqorida keltirilgan qiymatlarida p_i va ω chastotalar bir biriga yaqinlashadi. Natijada amplitudalarning oshishi kuzatiladi. $0.18 \leq \frac{n_0}{p_i}$ bo'lganda $\frac{\omega}{p_i}$ nisbat birga teng qiymatlarni qabul qilmaydi. $\frac{n_0}{p_i}$ nisbatning bu oralig'i va parametrlarning yuqorida keltirilgan qiymatlarida amplitudalarning oshishi kuzatilmaydi. Demak bu hol uchun $\frac{n_0}{p_i}$ nisbatni $[0.18; 1.0]$ intervalda olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5-rasmdagi grafiklarda (16) tenglama bilan aniqlangan funksiyaning $\frac{\omega}{p_i}$ chastotalar nisbatiga bog'liq holda o'zgarishlari $\frac{n_0}{p_i} = 0.5; 0.7; 1.0$ (qizil; qora; yashil) bo'lganda keltirilgan. Bu grafiklardan shuni xulosa qilish mumkinki, $\frac{n_0}{p_i}$ nisbatning bir qiymatidan kamayishi bilan $\frac{\omega}{p_i}$ nisbatning qiymatlari ham bir qiymatdan kamayadi va funksiyaning nollari bittaga ko'payib ikkita bo'ladi. Demak bu funksiya amplituda-chastota xarakteristikasida maxrajni ifodalashini hisobga olganda, bu funksiyaning nol qiymatga yaqinlashishi resonansni keltirib chiqaradi. Shu sababli, parametrlarning tanlangan qiymati uchun $\frac{n_0}{p_i} = 1.0$ qiymat amplitudaning bitta katta qiymatini keltirib chiqaradi. $\frac{n_0}{p_i} = 0.5; 0.7$ bo'lgan hollarda esa amplitudaning ikkita katta qiymatlari kelib chiqadi.

Dissertatsiyaning “**Gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen va harakatlanuvchi dinamik so'ndirgichning birgalikdagi tebranishlari dinamikasi**” deb nomlangan to'rtinchi bobida gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen va harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ

xarakteristikali dinamik so'ndirgichlarning birgalikdagi tebranishlarining dinamikasi o'rganilgan.

Qaralayotgan tebranishlardan himoyalalanuvchi sterjenning harakat differensial tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} & \ddot{q}_i + \{(1 + C_0(-\eta_1 + j\eta_2))p_i^2 + \frac{3EI}{\rho Ad_{2i}}(-\eta_1 + j\eta_2) \times \\ & \times \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx\} q_i - \\ & - \mu \mu_0 n_0^2 u_{i0} (1 + (-\theta_1 + j\theta_2)(D_0 + f(\zeta_{ot}))) \zeta H\left(\frac{1}{v} - t\right) = -d_i \frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}; \end{aligned} \quad (19)$$

$$u_{i0} \ddot{q}_i + \ddot{\zeta} + n_0^2 \left(1 + (-\theta_1 + j\theta_2)(D_0 + f(\zeta_{ot})) \right) \zeta = -\frac{\partial^2 w_0}{\partial t^2}.$$

Qaralayotgan tebranishlardan himoyalalanuvchi sterjenning absolyut tezlanishini ifodasi, izlanayotgan tezlanish ifodasining asos tezlanishi ifodasiga nisbatini quyidagicha yozish mumkin:

$$W_i(j\omega, x) = 1 + u_i \omega^2 \frac{A_1 + jA_2}{B_1 + jB_2}, \quad (20)$$

bunda $A_1 = -\omega^2 + (1 + d_i \mu \mu_0 u_{i0}) n_0^2 (1 - \theta_1 (D_0 + f(\zeta_{ot})))$;

$$A_2 = (1 + d_i \mu \mu_0 u_{i0}) n_0^2 \theta_2 (D_0 + f(\zeta_{ot})); A_3 = (-\omega^2 + (1 - \eta_1 C_0) p_i^2 - \\ - \eta_1 \frac{3EI}{\rho Ad_{2i}} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx) d_i + u_{i0} \omega^2;$$

$$A_4 = d_i \eta_2 (C_0 p_i^2 + \frac{3EI}{\rho Ad_{2i}} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx);$$

$$\begin{aligned} B_1 = & [-\omega^2 + (1 - \eta_1 C_0) p_i^2 - \eta_1 \frac{3EI}{\rho Ad_{2i}} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \times \\ & \times \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx] [-\omega^2 + n_0^2 (1 - \theta_1 (D_0 + f(\zeta_{ot})))] - \\ & - \eta_2 [C_0 p_i^2 + \frac{3EI}{\rho Ad_{2i}} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx] \times \\ & \times n_0^2 (1 + \theta_2 (D_0 + f(\zeta_{ot}))) - \mu \mu_0 n_0^2 u_{i0} \omega^2 (1 - \theta_1 (D_0 + f(\zeta_{ot}))); \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} B_2 = & [-\omega^2 + (1 - \eta_1 C_0) p_i^2 - \eta_1 \frac{3EI}{\rho Ad_{2i}} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k(k+3)} \times \\ & \times \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx] n_0^2 (1 + \theta_2 (D_0 + f(\zeta_{ot}))) + \end{aligned}$$

$$+ \eta_2 \left[C_0 p_i^2 + \frac{3EI}{\rho A d_{2i}} \sum_{k=1}^n C_k q_{ia}^k \frac{h^k}{2^k (k+3)} \int_0^l u_i \frac{\partial^2}{\partial x^2} \left(\frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \left| \frac{\partial^2 u_i}{\partial x^2} \right|^k \right) dx \right] \times$$


$$\times \left[-\omega^2 + n_0^2 \left(1 - \theta_1 (D_0 + f(\zeta_{ot})) \right) \right] - \mu \mu_0 n_0^2 u_{i0}^2 \theta_2 (D_0 + f(\zeta_{ot})) \omega^2.$$

(20) ifoda gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen va harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarining uzatish funksiyasi hisoblanadi. Bu ifoda harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik so'ndirgich effektivligini baholash va dinamik so'ndirgichning optimal paramertlarini aniqlash imkonini beradi.

$$d_1 = 0.3183098862; d_2 = 0.25; d_i = 1.273239545; \mu = 0.1; \mu_0 = 2.0$$

$$u_{i0} = u_{10} = 1; I = 1.066666667 \cdot 10^{-10} m^4; \varepsilon p_0 = 10^{-\frac{5}{2}} m.$$

Sistemaning amplituda-chastota xarakteristikasi grafigini chizamiz.




6-rasm. Amplituda-chastota xarakteristikasi ($x_0 = 0.125 m$).

6-rasmda gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning $x_0 = 0.125 m$ nuqtasida bo'lgan harakatlanuvchi dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarida dinamik so'ndirgich o'rnatilgan nuqtasining amplituda-chastota xarakteristikasining dinamik so'ndirgich bikrligiga bog'liq holda o'zgarishi keltirilgan. Bu grafiklardan shuni aytish mumkinki, dinamik so'ndirgich bikrligining otrishi bilan uning chastotasi sterjenning xususiy chastotasiga yaqinlashadi va

rezonans egri chizig'i chastota o'qi bo'ylab chapdan o'ngga siljiydi ($c = 10 \cdot 10^2 \frac{N}{m}$ (qora), $c = 12 \cdot 10^2 \frac{N}{m}$ (qizil), $c = 15 \cdot 10^2 \frac{N}{m}$ (ko'k)). Bu bikrlilik qiymatlarida rezonans chastotasi atrofida amplitudalarning eng katta qiymatlari mos ravishda $q_0 = 0.0036; 0.0035; 0.0024 m$ bo'ladi. Bundan $x_0 = 0.125 m$ nuqta uchun parametrlarning yuqoridagi qiymatlarida $c = 15 \cdot 10^2 \frac{N}{m}$ qiymat dinamik so'ndirgich bikrligining optimal qiymat degan xulosani aytish mumkin.

$t = 2 s$ bo'lganda harakatlanuvchi dinamik so'ndirgich sterjenning $x_0 = 0.25 m$ nuqtasida bo'ladi. Yuqorida keltirilgan parametrlarning qiymatlari asosida sistemaning amplituda-chastota xarakteristikasi grafigini chizamiz.



7-rasm. Amplituda-chastota xarakteristikasi ($x_0 = 0.25 m$).

7-rasmda gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning $x_0 = 0.25 m$ nuqtasida bo'lgan harakatlanuvchi dinamik so'ndirgich bilan birgalikdagi ko'ndalang tebranishlarida dinamik so'ndirgich o'rnatilgan nuqtasining amplituda-chastota xarakteristikasining dinamik so'ndirgich bikrligiga bog'liq holda o'zgarishi keltirilgan. Bu grafiklardan shuni aytish mumkinki, dinamik so'ndirgich bikrligining otrishi bilan xuddi $x_0 = 0.125 m$ nuqtadagidek uning chastotasi sterjenning xususi chastotasiga yaqinlashadi va rezonans egri chizig'i chastota o'qi bo'ylab chapdan o'ngga siljiydi ($c = 10 \cdot 10^2 \frac{N}{m}$ (qora), $c = 12 \cdot 10^2 \frac{N}{m}$ (qizil), $c = 15 \cdot 10^2 \frac{N}{m}$ (ko'k)). Bu bikrlilik qiymatlarida rezonans chastotasi atrofida amplitudalarning eng katta qiymatlari mos ravishda $q_0 = 0.0036; 0.0033; 0.00099 m$ bo'ladi. Bundan $c = 15 \cdot 10^2 \frac{N}{m}$ qiymat dinamik so'ndirgich bikrligi uchun optimal qiymat degan xulosani aytish mumkin.

XULOSALAR

“Sterjenning harakatlanuvchi dinamik soʻndirgich bilan birgalikdagi tebranishlari dinamikasini baholash” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar olindi:

1. Tebranishlardan himoyalanuvchi sterjenning koʻndalang tebranishlari quyidagi hollarda matematik modellastirildi:

- gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi chiziqli elastik xarakteristikali dinamik soʻndirgich bilan birgalikdagi tebranishlarining matematik modeli ishlab chiqildi;

- chiziqli elastik xarakteristikali sterjenning harakatlanuvchi gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali dinamik soʻndirgich bilan birgalikdagi tebranishlarining matematik modeli ishlab chiqildi;

- gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen va harakatlanuvchi dinamik soʻndirgichlarning birgalikdagi tebranishlarining matematik modeli ishlab chiqildi.

2. Tebranishlardan himoyalanuvchi sterjenning koʻndalang tebranishlarida uzatish funksiyasining analitik ifodasi sistema parametrlari va oʻzgaruvchilariga bogʻliq holda aniqlandi. Bunda sterjen materialining va harakatlanuvchi dinamik soʻndirgich elastik elementining dempferlovchi xossalari gisterezis tipida hamda chiziqli elastik boʻlgan hollar tahlil qilindi. Har bir hol uchun uzatish funksiyasining absolyut qiymatining sistema parametrlariga bogʻliq holda oʻzgarishi tahlil qilinib, harakatlanuvchi dinamik soʻndirgichning sterjenning zararli tebranishlarni soʻndirishdagi samaradorligi koʻrsatildi.

3. Gisterezis tipidagi elastik dissipativ xarakteristikali sterjen va harakatlanuvchi dinamik soʻndirgichlarning birgalikdagi koʻndalang tebranishlarida dinamik soʻndirgichning optimal parametrlarini aniqlash uslubi ishlab chiqildi va sonli tahlillar asosida bu optimal parametrlarini aniqlash boʻyicha tavsiyalar berildi. Xususiyl hollar, sterjen materialining va harakatlanuvchi dinamik soʻndirgich elastik elementining dempferlovchi xossalari gisterezis tipida hamda chiziqli elastik boʻlgan hollar ham tahlil qilindi.

4. Sterjen va harakatlanuvchi dinamik soʻndirgichlarning birgalikdagi tebranishlarida dinamik soʻndirgich va tashqi kuch chastotalarining sterjenning chastotasiga nisbatlari orasidagi bogʻliqliklar analitik koʻrinishda ifodalandi va sonli tahlil qilindi, rezonans chastotasi atrofida amplitudalarni kamaytirish boʻyicha zaruriy xulosalar olindi.

5. Sterjenning koʻndalang tebranishlarini soʻndirishda harakatlanuvchi dinamik soʻndirgichdan foydalanish boshqa tipdagi dinamik soʻndirgichlardan farq qilishi koʻrsatildi. Xususan tebranishlarini soʻndirishda bitta harakatlanuvchi dinamik soʻndirgich tebranishning nafaqat birinchi balki ikkinchi va uchinchi formalarida ham samarali ekanligi koʻrsatildi.

6. Olingan natijalarning ishonchliligi xususiyl hollar uchun adabiyotlarda keltirilgan natijalarni keltirib chiqirishi bilan koʻrsatildi.

**PhD.03/2025.27.12.FM/T.16.02 НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ АРХИТЕКТУРНО-
СТРОИТЕЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

ЮЛДОШОВА ЗАРНИГОР САЙФУЛЛО КИЗИ

**ОЦЕНКА ДИНАМИКИ КОЛЕБАНИЙ СТЕРЖНЯ
С ПОДВИЖНЫМ ДИНАМИЧЕСКИМ ГАСИТЕЛЕМ**

01.02.01 – Теоретическая механика

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухоро – 2026

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2025.3. PhD/FM1355.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном архитектурно-строительном университете имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице университета (www.bmti.uz) и на информационно - образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz)

Научный руководитель:

Ходжабеков Мурадjon Усарович
доктор физико-математических наук (DSc)

Официальные оппоненты:

Индиаминов Равшан Шукурович
доктор физико-математических наук, профессор
Хайдаров Илхом Кудратович
кандидат физико-математических наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный технический университет имени И. Каримова

Защита диссертации состоится «27» февраль 2026 года в 15:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.FM/Т.16.02 при Бухарском государственном техническом университете (Адрес: 200100, г. Бухара, ул. Каюм Муртозаева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84, факс: (+99865) 223-79-72, e-mail: bmti_info@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного технического университета (Адрес: 200100, г.Бухара, ул.Каюма Муртозаева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84). (зарегистрирован под №489)

Автореферат диссертации разослан «7» февраль 2026 года.

(Реестр протокола рассылки №20 от «2» декабрь 2025 года)



М.Х. Тешаев,

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор физико-математических наук (DSc), профессор.

Р.А. Сабирова,

Ученый секретарь Ученого совета по присуждению ученых степеней, кандидат физико-математических наук (PhD)

З.И. Болтаев,

Председатель научного семинара при Ученом совете по присуждению ученых степеней, доктор физико-математических наук (DSc), профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется демпфированию вредных колебаний, возникающих под воздействием внешних воздействий в наиболее современных устройствах, широко используемых в механике, автоматике, авиакосмической и других областях, повышению их эффективности и обеспечению долговечной надежной работы. В связи с этим одной из актуальных задач является проведение научных исследований существующих проблем, связанных с вибрациями перспективных устройств, разработка математических моделей, оценка их динамики, выбор оптимальных параметров и предоставление необходимых рекомендаций. Демпфирование и контроль вредных колебаний всех видов перспективных устройств, проектируемых и производимых в развитых странах, включая Японию, Китай, США, Россию и Германию, и обеспечение их эффективной и длительной надежной работы является одной из важных задач.

